



COLOR PHILOSOPHY AND ITS INFLUENCE ON THE HUMAN SPIRIT

Z. Q. Berdimurodova

G.P. Khullaliyeva

zarinbermur1996@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17416192>

ARTICLE INFO

Received: 14th October 2025

Accepted: 21st October 2025

Online: 22nd October 2025

KEYWORDS

Color, philosophy,
psychology, warm color, cool
color.

ABSTRACT

The article examines the significance of color in human psychology, presenting a critical overview of the reflections and theoretical contributions of philosophers and scholars. It further explores the extent to which the information, concepts, and theories related to colour influence on the human factor.

ФИЛОСОФИЯ ЦВЕТА И ЕЁ ВЛИЯНИЕ НА ДУХ ЧЕЛОВЕКА

З. К. Бердымуродова

Г. П. Хуллалиева

zarinbermur1996@gmail.com

ARTICLE INFO

Received: 14th October 2025

Accepted: 21st October 2025

Online: 22nd October 2025

KEYWORDS

Цвет, философия,
психология, тёплый цвет,
холодный цвет.

ABSTRACT

В статье анализируется значение цвета в психологии человека, приводится критический обзор взглядов и теоретических положений философов и учёных. Кроме того, рассматривается степень влияния представленных сведений, концепций и теорий о цвете на человеческий фактор.

RANG FALSAFASI VA UNING INSON RUHIYATIGA TA'SIRI

Z. Q. Berdimurodova

G.P. Xulkaliyeva

zarinbermur1996@gmail.com

ARTICLE INFO

Received: 14th October 2025

Accepted: 21st October 2025

Online: 22nd October 2025

KEYWORDS

Rang, falsafa, ruhiyat, iliq
rang, sovuq rang.

ABSTRACT

Maqolada rang va uning inson ruhiyatidagi o'rni hamda bu borada faylasuf, olimlarning fikr-mulohazalari haqida so'z boradi. Rang borasida keltirilgan ma'lumot va qarashlar hamda nazariyalarning qanchalik inson omiliga ta'sir qilishi nazarda tutilgan.

Dunyo o'z mohiyatiga ko'ra cheksiz sir-sinoatlardan iborat bo'lib, u inson tafakkurini, xususan, rang-barang hodisalar orqali o'ziga jalb etadi. Ular orasida rang mavzusi har doim aktualdir. Uning aktualligi esa insonning ruhiyatidan kelib chiqib, har doim qizg'in muzokarlarda bo'lganidadir. Nega biz rang yoki rangshunoslik fanini o'rganamiz yoki rang

falsafasiga qiziqamiz? Bu boradagi savollarga buyuk faylasuf olimlarning o'z nazariyalari orqali bergan tavsif va isbotlaridan xulosa chiqarishimiz mumkin. Shunga ko'ra, ranglar nazariyasi tarixida birinchi jiddiy burilish Isaak Nyutonning prizma orqali yorug'likni tahlil qilgan ilmiy tajribalari bilan bog'liq. Nyuton oq yorug'likning spektral tarkibini aniqlash orqali ranglarning fizikaviy tabiatini asoslab berdi va rangshunoslik fanining poydevorini qo'ydi. Uning izidan rus olimi M.V.Lomonosov ranglarning fizikaviy xossalarini chuqur o'rganib, ularni ilmiy asosda tasnifladi. Bunday tasniflar bilan har qanday fanning falsafasini o'rganish yoki o'rgatish mumkin. Eng qiziq holatlardan biri shuki, rang haqidagi har qanday nazariya o'rganishga arziydi va u ko'plab fanlar asosiga ko'ra o'rganiladi ham. Rangning faqat fizik emas, balki psixologik va estetik jihatlarini ham o'rgangan mutafakkirlar safida nemis shoiri va san'atshunosi I.V.Gyoteni alohida ta'kidlash joiz. U ranglarning inson ruhiy holatiga ko'rsatadigan ta'sirini tahlil qilib, ularni ikki guruhga – iliq (sarg'ish, qizil) va sovuq (ko'k, yashil) ranglarga ajratdi (1-rasm).



1-rasm. Ranglar tahlili (iliq va sovuq ranglar)

Shu orqali u rangni inson psixologiyasi bilan bog'liqlikni ham ana shu tartibda ajratib chiqqan. Ya'ni iliq yoki sovuq ranglar insonning xarakteri yoki uning ayni holatini bildirishi mumkinligini nazarda tutgan va o'z tahlillarida keltirib o'tgan. Sharq mutafakkirlari ham bu sohada salmoqli hissaga ega. Xususan, Abu Rayhon Beruniy o'zining "Mineralogiya" asarida 200 dan ortiq tabiiy ranglarning tavsifini keltirib, ularni modda, nur va inson idroki bilan bog'liq tarzda tahlil qilgan. Ibn Sino esa ranglarni inson sog'lig'i va temperamentlariga ta'sir qiluvchi omillar sifatida ham o'rgangan. Ranglar inson psixikasiga ta'sir etuvchi eng kuchli vizual omillardan biridir. Rangshunoslik fanida ranglarning psixologik va emotsional ta'siri chuqur o'rganilgan bo'lib, bu yo'nalish ayniqsa Gyotening "Ranglar haqidagi ta'limot" asarida alohida e'tibor qozongan. Uning fikriga ko'ra, ranglar inson ruhiyatiga har xil ta'sir ko'rsatadi: masalan, iliq ranglar (qizil, sariq, zarg'aldoq) faoliyat, energiya va quvnoqlik hissini uyg'otsa, sovuq ranglar (ko'k, yashil, binafsha) esa tinchlik, sokinlik, ichki tafakkur va salbiy emotsiyalarni bostirish bilan bog'liqdir.¹ Demak ranglarni o'rganish shunchaki qo'shimcha bilimlar qoldirish emas, balki, insoniyat ruhidan tortib, uning butun faoliyatiga ta'sir qiluvchi omillarni o'rganish desak to'g'ri bo'ladi. Yuqorida aytilganidek, ranglarning inson sog'lig'i va temperamentlariga ta'sir qiluvchi omillar sifatida ham o'rganilganligi ayni masalaga yechim demakdir. Avvalambor rangni fan sifatida o'rgana turib keyingi qadamimiz uning boshqa xususiyatlarini o'rganish bilan davom etadi.

¹ [RANGSHUNOSLIK: NAZARIY ASOSLARI, TARIXIY TARAQQIYOTI VA ESTETIK-TARBIYAVIY AHAMIYATI | ИКРО журнал](#)




Rangshunoslik – fizika, fiziologiya va psixologiya fanlari asosida ranglarni idrok etish, farqlash, hosil qilish va tizimlashtirishni o'rganuvchi fandır. Shunday ekan bu fanni o'rganish uchun yuqoridagi fanlar kesimida rang hodisasini ko'rib chiqish lozim. Bu fanlar ranglarni tizimlashtirib, ularning bir-biri bilan uyg'unligini o'rganib quyidagi savollarga javob beradi. Tabiatda ranglar qanday hosil bo'ladi, degan savolga fizika fani, inson qanday qilib ranglarni ko'radi, degan savolga fiziologiya fani, inson ruhiyatiga ranglar qanday ta'sir ko'rsatadi, degan savolga psixologiya fanlari orqali javob topamiz.² Demak, bu fikrlar bilan bemalol rang aslida faqat fan emas balki hayot tarzi sifatida ham o'rganilishi mumkin degan xulosaga kelsak bo'ladi. Falsafa ham barcha sohalarni qamrab olganini hisobga olsak rang yoki rangshunoslik ham bundan mustasno emas. Har qanday vaziyatda ham falsafa biz bilan birga va uning o'rni boshqa sohalarda singari rangda ham muhim.

Ranglarning insonga ta'siri haqida so'zlaydigan bo'lsak, u murakkab va turli sabablar bilan aniqlanadi. Hamma organizmlar – o'simliklar ham, hayvonlar ham ranglardan turlicha ta'sirlanadilar. To'lqinlarning aniqrog'i, turli ranglarning turli uzunlikdagi yorug'lik nurlari organizm yashash faoliyatiga spetsifik ta'sir ko'rsatadi: bir rang nurlari hayot jarayonlarining ancha tez va jadal o'tishiga yordam beradi, boshqa ranglar nurlari bu jarayonlarning o'tishini sekinlatadi.³ Xulosa qiladigan bo'lsak, insonning onggi rangni idrok qila olishi undagi qobiliyat shunchaki qarashlarga asoslanmasligini anglatadi. Bu borada, buyuk faylasuf va olimlarning qator fikr-mulohazalari ham bor. O'z davrining buyuk olimlaridan Qadimgi yunon faylasufi Pifagor (mil.avv. 570-490) inson olamni ko'rishi uchun ko'zlaridan ingichka nurlar chiqadi deb hisoblagan. Bu nurlarni ko'z nurlari yoki ko'rish nurlari deb nomlagan.

Qadimgi yunon faylasufi Empedokl (mil. avv. 490-430) doimiy mavjud bo'lgan hamma narsaning "ildizi" to'rt unsurdan olov, suv, havo va yerdan iborat ekanligini ta'kidlagan. Bu elementlarni quyosh, dengiz, osmon va yer bilan ifodalagan (2-rasm). Empedokl 4 ta asosiy rang sifatida oq (leukos), qora (melas), qizil (eruthros) va sariq (ochros) ranglarni belgilagan.

² [\(PDF\) Rangshunoslik va kompozitsiya asoslari](#)

³ [2023-12-25-05-03-45_4593f234885c1cc953e3390ace9d5f60.pdf](#)



4

2-rasm Empedoklning unsun nazariyasi

Demokrit (mil. avv. 460-370) Demokrit visual olam ko'zlarga o'zi kelishi farazi tarafdori bo'lgan. U ham 4 ta oq, qora, qizil, sariq ranglar haqida aytib o'tgan.

Uyg'onish davrining yirik rassomi Leonardo da Vinci "Rangtasvir haqida traktat" kitobida yetakchi ranglar sifatida olti rangni belgilab, birinchilardan bo'lib quyidagi ranglarning ramziy ma'no bildirishini aytib o'tadi: oq – yorug'lik, sariq – yer, yashil – suv, ko'k – havo, qizil – olov, qora – tun. His va his etiladigan narsalar haqida risolada Aristotel oraliq ranglar yorug'lik va zulmat aralashmasi natijasida paydo bo'ladi deb ta'kidlagan. Aristotel rang haqida keng ta'limot yaratgan, ammo ularning barchasi turli mavzulardagi asarlari orasida yozib qoldirilgan. Aynan uning falsafiy maktabi antik davrdan bizgacha yetib kelgan rangning yagona keng qamrovli talqinini qoldirgan.⁵

Bir rang ba'zi xalqlarda bir ma'noni bildirsa, boshqalarda o'zgacha ma'no berishi ham mumkin. Qizil – qon, olov rangi. U jozibador, ko'zga tez tashlanuvchan rang bo'lib, ko'p xalqlarda o'xshash, ba'zilarida esa qarama-qarshi ma'nolar beriladi. Qizil tabiatdagi go'zal rang sifatida quvonch, shodlik, muhabbat, bayram ramzini bildiradi. Ba'zi xalqlarda qizil qon rangi sifatida inqilob, shiddat, qasos, tajovuzkorlik ramzi.

Olovrang – jo'shqinlik, ogoh bo'lish, ehtiyotkorlik ramzi. Davolash xususiyatiga ega, kayfiyatni ko'taradi,

Oq – ko'plab xalqlarda poklik, donishmandlik, ozodalik ramziga ega bo'lsa, Afrika, Avstraliya mamlakatlarida motam belgisini bildiradi. Jang maydonida oq bayroqning ko'tarilishi – mag'lubiyatini tan olish ma'nosini bildiradi. Xalqimizda hammamizga tanish "oqsoqol" degan ibora bor bo'lib, ko'p bilim va tajribaga ega, donishmand, ulug' yoshdagi insonlarga nisbat berib qo'llaniladi.

⁴ <https://www.amhenews.gr/>

⁵ [\(PDF\) Rangshunoslik va kompozitsiya asoslari](#)



Sariq – bo‘yoqlar orasida eng yorqin, quyoshli kunni eslatuvchi rang. Sharq xalqlarida oltin rangini eslatgani uchun boylik ramzi hisoblanadi, Yevropa xalqlarida yozning o‘tishi va kuzning boshlanishini eslatgani uchun ayriliq ramzi deb qaraladi.

Yashil – I. Gyote ta’riflaganday “betaraf rang”. Yashil tabiatdagi yangilanuvchanlik, tinchlik, barqarorlik, hayot ramzi bo‘lishi bilan birga, inson ruhiyatini tinchlantiradi, asablar dam olishiga yordam beradi.

Havorang – musaffo osmon rangi sifatida osoyishtalik, tinchlik ramzi. ruhiyatga, asab tizimlariga ijobiy ta’sir ko‘rsatib, tinchlantirish xususiyatiga ega.

Binafsha rang (siyohrang) – tabiatda kam uchraydi. U bezovtalik, xavotirlikni chaqiradi, tartibsizlik bilan birga hukmdorlik ramzi.

Qora – yorug‘lik tushunchasining aksini bildiradi. Nursiz makon qora rangda bo‘lib, doim qo‘rquvni chaqiradi. Shuning uchun qora salbiy – o‘lim, chorasizlik, bo‘shliq, yovuzlik, baxtsizlik ramzi bo‘lishi bilan birga, noma’lumlik, sirlik ramzi hamdir.⁶

Yuqoridagi ma’lumotlar rangning har jabhada inson bilan birga ekanligi, uning hayoti davomida muhim qismga aylanib ulgurganini sezish mumkin. Rangga tegishli falsafiy qarashlar har doim o‘zini oqlagani kabi bundan keyin ham insoniyat hayoti davomida u bilan birga bo‘lishi shubhasizdir.

Insonning estetik hissiyoti rivojining qaysidir bosqichida moviy, ko‘k, binafsharanglar janubda juda yuqorida, shimoldagiga qaraganda ancha to‘q bo‘lib ko‘rinadigan osmon rangi bilan o‘xshatilgan deb tasavvur qilish mumkin. Sariq, jigarrang – yer bilan o‘xshatilgan. Qizil quyosh bilan, oq – tunggi mash’al, oy va yulduzlar bilan assotsiatsiyalangan. Ammo bu o‘xshatishlar adabiy xarakterga ega. Ular me’morlar hayollariga o‘xshatish va nisbatlar yordamida me’morchilik mo‘jizalarni tasvirlovchi Sharq shoirlari tasavvurlariga xizmat qilgan. Usta –quruvchilar doimo binoning amaliy vazifasi, uning maishiy, assotsial va estetik funksiyasi bilan hisoblashganlar. Me’morlar g‘oyasi ko‘proq bezatish bilan ishlarining texnika va texnologiyasiga yo‘naltirilgan.

Keyingi asrlar ular rang gammasi rivojining rang-barang ko‘rinishini beradi. XIV asrning 70- yillarigacha oq, kulrang, keyinchalik ko‘k, binafsharang va to‘q binafsha, jigarranglar bilan “moviy stil” ko‘p tarqaladi. Insonning ko‘proq qaysi rangni tanlashiga qarab uning ruhiyati haqida bilish mumkin. Inson ichki olami xilma-xil va rang-barang taasurotlar bilan o‘ralgan Inson ana shu taasurotlar olamidagi rangbaranglikdan o‘z qalbini ifodalovchi, ong-shuurida kurtak tukkan, barg yozgan fikrlar urug‘ini yorutuvchi kechinmalarni to‘g‘ri yo‘naltira olishi muhimdirki, bu insonning o‘zligini namoyon etadi, o‘zining kimligi, nimalarga qodirligi, qanday salohiyat egasi ekanini ko‘rsatadi. Ko‘ngli “kirlangan” odamning tuyg‘ulari nursiz holatda bo‘ladi. Inson ranglardan ma’naviy, ruhiy ozuqa oladi. O‘ziga ma’qul kelgan rangdagi narsani ishlatadi. Ruhiga mos ranglardan xursand, ruhi tetik bo‘ladi, quvonadi.

Xulosa: Ranglar olami insonni beqiyos falsafiy mushohadaga chorlayveradi. Bu bilan aytish mumkinki, inson ruhiyati o‘rganish murakkab lekin dolzarb mavzudir, ranglar ayni shu mavzuga o‘z falsafasi bilan osonlikcha insonga ta’sir ko‘rsatadigan, kerak bo‘lganda o‘zgartira oladigan bir kuchdir.

⁶ [660d2fd4ce4a6 Sabirov Mirkhamid Rangshunoslik va kompoz.pdf](#)



References:

1. Xotamjonov I. X. "[Rangshunoslik: nazariy asoslari, tarixiy taraqqiyoti va estetik-tarbiyaviy ahamiyati](#)", *икро журнал*
2. Nazilov D.A, Dmitriyeva I.V "Kompozitsiya asoslari" Toshkent "Yangi asr avlodi" 2009 y.
3. Rashidov J.X "Rangshunoslik va kompozitsiya asoslari", Toshkent 2023
4. Sabirov M.M "Rangshunoslik va kompozitsiya asoslari": o'quv qo'llanma.-Toshkent, Lesson press, 2021.
5. Isakova Z.R "Ranglarning falsafiy-irfoniy talqini yoxud ranglar falsafasi"-maqola.-Namangan. 2020
6. <https://www.amhenews.gr/>
7. Raximova K., & Boltayeva I. (2025). DIZAYNNING DUNYO USLUBLARIDAGI O'RN. Yevrosiyo Ilmiy Tadqiqotlar Jurnal, 5(9), 86–90. Retrieved from <https://in-academy.uz/index.php/ejar/article/view/59946>. DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.17152422>
8. Sultanova F. Toshbekov O. Bo'lajak muhandislarga raqamli texnologiyalar asnosida o'qitish tizimlari. Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры, 2024. 4(5), 16–21.
9. Тошбеков О., Мустанов З. Анализ основных физико-механических характеристик шерсти в нашей республике. Евразийский журнал академических исследований, 2024. 4(4), 152–158.
10. Урозов, М. К., Тошбеков, О. А., Рахимова, К., & Бобомуродов, Э. (2022). Жун толаси диаметри ва нотекислиги аниқлаш. *Евразийский журнал академических исследований*, 2(13), 789–791.
11. Урозов М.К., Тошбеков О.А., Рахимова К. Жунни қалинлигини синовдан ўтказиш усуллари. Eurasian Journal Of Academic Research. 2022. Vol 2, № 13. P. 784–788; [01.00.00, №5¹].
12. Тошбеков О., & Мустанов З. Олинган нотўқима матонинг ишқаланишга чидамлилигини ва шовқинни ютишга юқори мослашувчанлик хоссаларини аниқлаш. Евразийский журнал академических исследований, 3(12 Part 2), 2023. 217–221.
13. Тошбеков О., Рахимқулова С. Дағал жун толалари асосида олинган (автомобил, авиятсия, кемасозлик) саноати учун қўлланилган нотўқима мато тайёрлаш. Евразийский журнал академических исследований, (2023). 3(12 Part 2), 211–216.
14. Toshbekov, O., Urazov, M., Ermatov, S., & Khamraeva, M. 2023). Efficient and economical energy use technology in the processing of domestic coarse wool fiber. In *E3S Web of Conferences* (Vol. 461, p. 01068). EDP Sciences.